KUNJUT (SESAMUM INDICUM L.) NING UNUVCHANLIGINI VA UNISH ENERGIYASINI ANIQLASH VA LABARATORIYADA TEKSHIRISH.

Sharopova Elmira Husan qizi
Qarshi texnika Unversiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada laboratoriya sharoitida kunjut (Sesamum indicum L.) ning Qora shaxzoda va Toshkenskiy-122 navining urug'larini oddiy sharoitda va saxorozada unuvchanligini o'rganish bo'yichicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar haqida malumot keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kunjut, Sesamum indicum L, unuvchanlik, unish energiyasi.


Kunjut kunjutsimonlar (kunjutdoshlar –Pedaliaceae) oilasining Sesamum avlodiga kiradi. Kunjut eng qimmatbaho moy beruvchi o'simlik hisoblanadi. Urug'lari tarkibida 60-65 foiz moy, 16-22 foiz oqsil va 18 foiz eriydigan uglevod mavjud. Kunjut moyi xatto zaytun moyiga nisbatan afzal bo'lib, oziq-ovqat sanoatida, tabobatda va upa-elik ishlab chiqarishda muhim xom-ashyo hisoblanadi . Kunjut kunjarasida 40% oqsil, 8% moy bo'lib, qandolat sanoatida keng qo'llaniladi. Bundan tashqari chorva mollari uchun oziqa sifatida beriladi . Kunjut issiqsevar o'simlik, urug'lari 15-16°C haroratda una boshlaydi, maysalari qiyg'os unib chiqishi uchun 18-20 °C harorat talab qilinadi. Harorat 23-25°C bo'lganda ekish-unib chiqish davri qisqaradi. Sovuqqa chidamsiz, maysalari 0,5-1°C sovuqda nobud bo'ladi.

Ma'lumki, urug'larning unish energiyasi va unuvchanligi ularning ekishga yaroqliligini belgilaydigan eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ushbu xususiyatlar albatta ekinning ko'chat qalinligiga, o'simliklarning bir yo'la qiyg'os rivojlanishi hamda boshqa belgilariga katta ta'sir ko'rsatadi. Shunisi aniqki, tajribaxonalarda qulay sharoit bo'lganligi uchun urug'larning unuvchanligi daladagiga nisbatan doim yuqori bo'ladi. Shunday bo'lsada urug'larning tajribaxonalarda aniqlangan unuvchanligi ularning ekishga yaroqlilik sifatlarini yetarlicha yaxshi

ifodalaydi .

Shulardan kelib chiqib, biz o‘z tajribalarimizni Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot inistitut Dukkakli, moyli hamda dorivor o‘simliklar genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi laboratoriyasida Kunjut (Sesamum indicum L.) Qora shaxzoda va Toshkenskiy-122 navining urug’larini oddiy sharoitda va saxorozada unuvchanligini o’rganish bo’yichicha tadqiqotlar olib bordik.

Tadqiqotlarimizga kunjut (Sesamum indicum L.) ning Toshkenskiy-122, Qora shaxzoda navlarida tajriba olib bordik. Urug‘larning laboratoriya unuvchanligi petri idishlarida har birida 100 tadan urug‘ bo‘lgan 4 ta takrorlanishda o‘tkazildi. Urug‘larning unuvchanligi (steril petri idishlari, distillangan suv, filtr qog‘ozdan foydalangan holda) termostatda +23C haroratda o‘stirish orqali amaldagi GOST 12038-84 ga muvofiq aniqlandi. Olingan natijalar grafik shaklida quyidagi diagrammaga joylandi .



Diagrammada keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, kunjutning Toshkenskiy-122 va Qora shaxzoda nav va namunalarida unish energiyasi va unuvchanlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir biridan farqlanishi kuzatildi. O‘rganilgan nav va namunalarda unish energiyasi bo‘yicha yuqorida ko’rsatilgan Saxarozada unuvchanlik ikki navda ham keskin pasayish kuzatilgan Ushbu nav namunalarida unish energiyasi bo‘yicha ko‘rsatgichlar 98-100%. gacha ekanligi aniqlandi. Ammo Saxaroza 15% da quyilganda unuvchanlik 50%ni tashkil qilgan. Bunda kurinib turibdiki kunjutning Toshkenskiy-122 va Qora shaxzoda nav va namunalari issiqlikka chidamliligi qurg’oqchilikka chidamliligini aniqlandi va chiday olishi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda biz tajribamizdan Kunjut navlari va namunalarini labaratoriya sharoitida unuvchanligini va suv tanqisligiga chidamliligiga tatqiqot olib bordik va natijasini ko’rdik shuni aytish kerakki olingan natijalarga ko’ra , saxaroza eritmasida unuvchanlik darajasi navlarning qurg’oqchilikka va suv tanqisligiga moslashuvchanligini aks etiradi. Yuqorida ko’rsatkichga ega bulgan navlar stress sharoitda ham barqaror unish xususiyatini saqlab qolishi bilan ajralib turadi.Shu sababli saxarozada o’tkazilgan tajribalar urug’larning fiziologik holatini va ularning stress omillarga chidamliligini baholashda muhim ahamyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Weiss E. A. Oilseed Crops. 2nd ed. – Oxford: Blackwell Science, 2000.
2. Bedigian D. Sesame: The Genus Sesamum. – Boca Raton: CRC Press, 2011. 3. Ashri A. Sesame. In: Smartt J., Simmonds N. W. (eds.). Evolution of Crop Plants. 2nd ed. – Harlow: Longman, 1995.
4. FAO. FAOSTAT: Crops and Livestock Products. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining statistik ma’lumotlar bazasi.
5. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining moyli ekinlarni yetishtirish bo‘yicha amaldagi tavsiyalari va me’yoriy materialla

6. ГОСТ 12038-84 СЕМЕНА СЕЛЪСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ КУЛЪТУР методы определения всхожести. – М.: Стандартинформ, 2011. – 49-b